



RUS ELCHI VA SAYYOHLARI NIGOHIDA BUXORO TARIXINING NAMOYON BO`LISHI

Jaxongir Norbekov

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

"Tarix" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro xonligining rossiyalik taniqli elchi hamda sayyoh-yozuvchilar nigohidagi ko'rinishi, tarixiy lavhalar, faktlar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek bekliklari, xonliklar, rus qochoqlari, Buxoro amirligi xaritasi, ma'danlar, Buxoro konsulligi.

KIRISH. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro xonligida iqtisodning rivojlanishi uchun yaxshi sharoitlar yuzaga keldi, garchand sekinroq bo'lsada, ishlab chiqarish kuchlari o'sdi, shahar hayoti va ba'zi viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yaxshilandi, xalqaro bozor ahamiyati ortdi, shuningdek, Rossiya bilan savdo-sotiq munosabatlari kengaydi. XVII asr oxirida Rossiyada kapitalistik munosabatlar rivojlanishi tufayli uning Buxoro xonligi bilan o'zaro aloqalari kuchaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

1820-yil Rossiya Tashqi ishlar vazirligi martabali maslahatchi A.F. Negrini elchilik rahbari qilib tayinlaydi va Buxoroga jo'natadi. Negri o'ziga yuklatilgan barcha topshiriqlarni muvaffaqiyatli ado etgan va Buxoro amirligi bilan olib borgan muzokoralari to'g'risida Tashqi Ishlar vazirligiga batafsil hisobot topshirgan. Buxoroga jo'natilgan diplomatik missiya tarkibida harbiylar: gvardiya general shtabi kapitani E.K. Meyendorf va poruchik V.D. Vol'xovskiy, qo'shinni joylashtirish va ta'minlash bilan bog'liq qism poruchigi Timofeyev, Orenburg korpusi podporuchigi Tafaev bilan Artyuxovlar ham bor edi. Ushbu missiya vakillarining esdalik, qaydlari va asarlari orasida E.K. Meyendorfnin "Путешествие из Оренбурга в Бухару" (Orenburgdan Buxoroga sayohat) nomli asari ayniqsa qimmatlidir.



Mazkur “Orenburgdan Buxoroga sayohat” asarida, muallif, Buxoroning qisqacha tarixi, uning nomlanishi, undagi muhim voqealar, amirlikdagi tarixiy-me’moriy obidalarining tadqiq etilishi masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

A. Byorn o’zining “Путешествие в Бухару” esdaligida Buxoro shahrining poydevori Iskandar Zulqarnayn yoki Buyuk Iskandar zamonlariga to’g’ri kelishini ta’kidlagan bo’lsa [1], E.K. Meyendorf “Buxoro” nomi birinchi marta X asr arab mualliflari tomonidan tilga olinganligini qayd etgan [2]. Egor Kazimirovich tadqiqotchi sifatida Buxoro shahrining qadimiy ekanligini shahar tarixiy-memoriy topografiyasini chuqur o’rganish orqali aniqlash mumkinligini anglaganligi shubhasiz.

E.K. Meyendorfdan ushbu tepalikka nisbatan qiziqishning mavjudligi, hamda, qo’rg’onda oliy hukmdor (har bir chet ellik tadqiqotchi uchun muqarrar qiyinchiliklar hattoki o’limiga sabab bo’lishi mumkin bo’lgan shaxs) qarorgohi joylashganligi sababli uni o’rganishga kirishadi. “Orenburgdan Buxoroga sayohat” asarida inshoot poydevorining atrof diametri taxminan 400-500 qadamni tashkil etishi, binoning asosiy qurilishi Somoniylar davrida amalga oshirilganligi, ko’rinishidan saroy darvozalari Rahimxon (Buxoro amiri) tomonidan 1742- yilda qurilganligi bayon etilgan. Shuningdek, Meyendorf o’z esdaligida mo’g’ullarning Buxoroga kirishi, Temuriylar va Shayboniylar davriga oid o’z fikrlarini keltiradi. “Shahar savdo uchun juda qulay joyda joylashgan bo’lib, u tezda boyib ketdi, so’ngra “varvar”larning ochko’zligini qo’zg’atdi, o’g’irlandi va talandi, so’ngra uni umrining oxirigacha tiklashga imkon bermagan Chingizxon qo’shinlari tomonidan yoqib yuborildi.

1841 yilda Rossiya podsholigi tomonidan injener, podpolkovnik Butenev boshchiligida Buxoroga elchilar yuborildi. Butenev boshchiligidagi elchilar 1841 yil 20 mayda Orenburgdan Sirdaryogacha podpolkovnik Blaramberg qo’mondonligidagi urallik 400 kazak va 100 ta piyoda askar himoyasida yo’lga chiqdi va o’sha yili 5 avgustda Buxoroga etib keldi. Elchilar tarkibida ikki muhandis va ikki ustadan tashqari, sharqshunos N. Xanikov, tabiatshunos Leman, topograf Yakovlevlar bor edi.



Elchilar orqali Rus hukumati amirga podsho nomidan yorliq, odatdagidek sovg'alar, uning vazirlariga Rossiya tashqi ishlar ministrligidan xatlar yuborildi. Butenevga bir qancha masalalarda yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan edi. Elchilar Buxoroda yaxshi kutib olindi. Butenyov podsho yorlig'i va sovg'alarini Nasrulloxonga, tashqi ishlar ministri graf Nesselrad nomidan hamda Osiyo departamenti direktori tomonidan yozilgan xat va sovg'alarni amirga topshirdi. Chor hukumati tomonidan elchilarga bir qator vazifalar yuklatilgandi.

Chunonchi amirning iltimosiga ko'ra, yer osti boyliklarini aniqlashga yordam berish, savdo aloqalari va diplomatik munosabatlarni yanada yaxshilash, Buxoro xonligi haqida, uning chegeralari, aholisi, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sanoati, ular etishtirayotgan mahsulotlar, siyosiy tuzilishi, qurolli kuchlari, boyliklari va daromadi haqida to'liq ma'lumot to'plash, mahalliy va Evropasanoat mollaridan na'munalar, jumladan Qobul orqali Buxoroga keltiriladigan ingliz tovarlarining nusxalarini yig'ish va narxlarini bilish, mahalliy bozorlarda qanday mollar ko'plab talab qilinayotganligini, xususan uy-ro'zg'or va qishloq xo'jaligi uchun kerak bo'lgan asboblarni aniqlash, Buxoroda rus savdo konsulligini tashkil etish, inglizlarning tashqi siyosat sohasida Sharq va O'rta Osiyoga nisbatan qilayotgan xatti-harakatlarini, ularning Afg'onistonga bostirib kirishlari Buxoroga qanday ta'sir etganligini, ingliz tovarlariga qarshiraqobat qilish yo'li bilan ularni O'rta Osiyo va butun Sharqdan siqib chiqarish choralarini belgilash, Amudaryoning chap qirg'og'idagi mustaqil o'zbek bekliklari bo'lgan Qunduz, Xulim, Xonobod, Andixoy va Mozori Sharifni to'la-to'kis o'rganish, ular bilan iqtisodiy diplomatik munosabatlarni tiklash choralarini ko'rish, Afg'oniston va Hindiston tomonlarga o'tish yo'llarini aniqlash, xususan Buxoro-Xiva munosabatlarini yaxshilash tadbirlarini qo'llash, jumladan Xivaning ilgarigi xoni tomonidan qilingan g'ayri qonuniy harakatlarini yoddan chiqarishga amirni ko'ndirishi zarur edi.

XULOSA VA MUNOZARA



O'rta Osiyo jumladan Buxoro amirligi xususida to'plagan materiallarining ko'lami kengayib bordi. Xususan, 1842 yili Butenevning "Buxoro-mineral boyliklari", Buxorodagi po'lat toblash usuli haqida mulohazalar", "Buxorodagi rus konchilik zavodlari mahsulotini sotishni rivojlantirish to'g'risida" nomli maqolalari hamda 1843 yilda N.Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" kitobi bosilib chiqdi. Ularda Buxoro amirligining davlat tizimi, shaharlari, xo'jaligi, aholining mashg'ulotlari va turmush tarzi xususida boy ma'lumotlar bor. Shu bilan birga mazkur xotira va hisobotlar mualliflari ba'zi bir hollarda bir yoqlamalikka va sub'ektivlik singari nuqsonlarga yo'l qo'yishlarini ham ta'kidlab o'tish zarur. Shu bois ham ulardan biz yuqorida qayd etib o'tganimizdek tanqidiy va mahalliy materiallar bilan solishtirgan holda foydalanish joizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Borns A. Buxoroga sayohat. Ikkinchi qism. 1848 yil - Moskva: -b. 423.
2. Meyendorf E.K. Orenburgdan Buxoroga sayohat. Muqaddima N. A. Halfina, M., "Science" nashriyotining Sharq adabiyoti bosh tahririyati, 1975. -b. 92.
3. Azamat Ziyo. "O'zbek davlatchiligi tarixi" (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent.: "Sharq", 2000. –B. 139.
4. Meyendorf E.K. Orenburgdan Buxoroga sayohat. Muqaddima N. A. Halfina, M., "Science" nashriyotining Sharq adabiyoti bosh tahririyati, 1975. -P. 92.